1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

FITOBIOTIK PREPARATNING PARRANDALAR ORGANIZMIGA TA'SIRI

Perdebayeva Xurliman Azamat kizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Xatamov Tolmas Tulkinovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti.

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311009

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
60–63

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Perdebayeva X.A., Xatamov T.T. Fitobiotik preparatning parrandalar organizmiga ta'siri // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 60–63. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311009

АННОТАЦИЯ В статье изучено влияние экстракта Aloe vera на физиологическое состояние, живую массу и сохранность кур яичного направления породы Lohmann Sandy. Установлено положительное изменение отдельных клинических показателей и увеличение живой массы птицы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА Aloe vera, фитобиотик, куры-несушки, живая масса, сохранность, яйценоскость.

ANNOTATION The study investigated the effects of Aloe vera extract on the physiological condition, body weight and survival rate of Lohmann Sandy laying hens. Positive changes in some clinical parameters and body weight gain were observed.

KEYWORDS Aloe vera, phytobiotic, laying hens, body weight, survival rate, egg production.

Kiriş. Parrandaçilik çorvaçilikning muhim va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bölib, aholini sifatli tuxum va parhezbop oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaşda muhim örin tutadi. Tuxum yönalişidagi parrandalarning mahsuldorligi ularning fiziologik holati, oziqlaniş darajasi, modda almaşinuvi va organizmning taşqi muhit omillariga moslaşiş qobiliyatiga bevosita boğliq. Şu sababli parrandalar ratsionini biologik faol moddalar bilan boyitiş, tabiiy kelib çiqişga ega qöşimçalardan foydalaniş hamda ularning organizmga ta'sirini ilmiy jihatdan baholaş dolzarb masalalardan hisoblanadi. Sönggi yillarda çorvaçilik va parrandaçilik amaliyotida fitobiotik vositalardan foydalanişga alohida e'tibor qaratilmoqda. Fitobiotiklar ösimliklardan olinadigan biologik faol birikmalar majmuasi bölib, ularning tarkibida polifenollar, flavonoidlar, organik kislotalar, polisaxaridlar va boşqa tabiiy moddalar uçraydi. Uşbu birikmalar organizmdagi fiziologik va metabolik jarayonlarga ta'sir körsatişi mumkin.

Aloe vera (Aloe vera) tarkibida polisaxaridlar, jumladan, atsetillangan mannanlar, fenolik birikmalar, vitaminlar va mineral moddalar mavjud. Ilmiy tadqiqotlarda aloe vera gelidan olingan ekstraktlarning broyler jöjalar ösişi, ayrim gematologik va biokimyoviy körsatkiçlariga ta'siri örganilgan. Biroq tuxum yönalişidagi tovuqlarda aloe ekstraktining

organizmning klinik holati, tirik vazni, tuxum mahsuldorligi va tuxum sifatiga ta'sirini baholaş ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Şu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning maqsadi tuxum yönalişidagi "Lohmann Sandy" zotli tovuqlarga aloe vera ekstraktini içimlik suvi orqali berişning ularning klinik holati, tirik vazni, saqlanuvçanligi va tuxum sifatiga ta'sirini örganişdan iborat.

Tadqiqot obyekti va uslublari. Tajribalarimiz uçun "Lohmann Sandy" zotiga mansub 20 haftalik tuxum yönalişidagi tovuqlar tanlab olindi. Har bir guruhda 20 boşdan tovuq bölgan 2 ta guruh şakllantirildi. Tajriba boşlanişidan oldin hamda har 20 kunda bir marta parrandalarning klinik holati, gematologik körsatkiçlari va tuxum tarkibining biokimyoviy parametrlari laboratoriya şaroitida tahlil qilib borildi. Tovuqlarning tirik vazni esa muntazam ravişda tarozida ölçaş usuli orqali aniqlanib borildi.

Nazorat guruhidagi tovuqlar faqat xöjalikda qöllanilayotgan standart ratsion asosida boqildi va ularga qöşimça preparatlar berilmadi. Birinçi tajriba guruhiga "Aloe ekstrakti" preparati 1 ml miqdorda 1 litr içimlik suviga aralaştirilgan holda berildi. Uşbu preparatlar 5 kun davomida qöllanilib, söng 5 kunlik tanaffus amalga oşirildi va yana 5 kun davomida qayta beriş sikli davom ettirildi. Şu tartibda tajribalar ikki oy (60 kun) davomida olib borildi.

Tadqiqot jarayonida qöllanilgan preparatlarning samaradorligi parrandalarning saqlanuvçanlik darajasi, tuxum mahsuldorligi hamda tirik vazn ösişi körsatkiçlari asosida baholandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Olingan natijalar tahliliga köra, 60 kunlik tajriba davomida nazorat guruhidagi tovuqlarning saqlanuvçanlik darajasi 85,4 % ni taşkil etdi. Tajriba guruhida bu körsatkiç 100 % ga teng bölib, yuqori natija qayd etildi.

Umuman olganda, olingan ma'lumotlar fitobiotik preparatlarning kompleks qöllanilişi parrandalarning umumiy holati, immun barqarorligi va saqlanuvçanlik darajasini sezilarli darajada yaxşilaşini körsatadi (1-jadval).

1-jadval. Tajribadagi tovuqlar tirik vaznining özgarişi va saqlanuvçanlik körsatkiçlari

Guruhlar	Tovuqlar bosh soni	Tajriba boshidagi o'rtacha tana vazni, g	Saqlanuv-chanlik, %	Tajriba oxiridagi o'rtacha tana vazni, g
Nazorat	20	1658	85,4	1794
I-tajriba	20	1662	100,0	1846

Tajriba yakunida nazorat guruhidagi tovuqlarda pat qoplamasining hurpayişi, umumiy oriqlaş, toj va sirğalarda anemiya belgilari, gipodinamiya hamda iştahaning pasayişi kabi A gipovitaminozga xos klinik simptomlar kuzatilgani qayd etildi. Bu holat ratsionda retinol va uning provitaminlari yetişmovçiligi bilan boğliq metabolik buzilişlar rivojlanganini körsatadi. Tajribalar boşlanişi va yakunidagi körsatkiçlar taqqoslanganda, tovuqlarning tirik vazni barça guruhlarda turliça özgariş qayd etdi. Xususan, nazorat guruhida örtaça 136 g ga ösiş kuzatilgan bölsa, tajriba guruhida 184 g ga vazn ortişi qayd etildi.

2- jadval. Tajribadagi tovuqlar klinik körsatkiçlari

Tajriba guruhlari	Tajriba vaqti	Nafas soni, 1 daqiqada	Yurak urish soni, 1 daqiqada	Tojlarning oqarishi, %	Patlarning hurpayishi, %	Tuxumning yupqa po'choqli bo'lishi, %

Nazorat	A	16,8±1,8	124,4±4,0	40	40	20
	B	22,5±1,6	134,2±4,3	40	50	20
	S	22,4±1,6	134,8±4,5	45	50	30
1-tajriba	A	18,4±1,4	128,5±5,2	40	40	20
	B	18,5±1,5	128,2±5,4	35	35	10
	S	18,2±2,0	126,2±5,2	25	30	5

Eslatma: A-tajribalarning boşida; B-tajribalarning örtasida; S-tajribalarning oxirida.

Olingan natijalarga köra, tana vaznining oşişi va saqlanuvçanlik körsatkiçlari böyiça yuqori samaradorlik tajriba guruhida, ya'ni "Aloe ekstrakti" preparati qöllanilgan guruhda kuzatildi. Uşbu guruhda parrandalarning umumiy fiziologik holati barqarorligi va mahsuldorlik körsatkiçlari boşqa guruhlarga nisbatan ustun ekanligi aniqlandi.

Tajribadagi tovuqlarda klinik tekşirişlar natijalari şuni körsatdiki, nazorat guruhidagi tovuqlarda 1 daqiqadagi nafas va yurak urişi sonining tajribalarning oxiriga kelib dastlabki körsatkiçlarga nisbatan şunga mos holda örtaça 5,6 va 10,4 martaga oşişi kuzatildi. Tajriba guruhlaridagi tovuqlarda yurak urişi soni va nafas soni tajribalar davomida deyarli özgarmadi.

Nazorat guruhidagi tovuqlarda klinik kuzatuvlar natijasida umumiy holsizlik, toj va sirğalarning oqarişi hamda kamqonlik belgilarining rivojlanişi, gipodinamiya, ösiş va rivojlanişdan ortda qoliş, tana vaznining kamayişi, mahsuldorlik körsatkiçlarining pasayişi, teri qoplamasining quruqlaşişi va patlarning hurpayişi kabi patologik holatlar qayd etildi. Uşbu belgilar kompleks ravişda organizmda modda almaşinuv jarayonlarining buzilganligini va vitamin-mineral yetişmovçiligi fonida umumiy rezistentlikning pasayganligini körsatdi. Tajribalarning boşida nazorat va tajriba guruhlaridagi tovuqlarning 40% da tojlarning oqarişi, patlarning hurpayişi va 20% da tuxumning yupqa pöçoqli bölişi kuzatilgan bölsa, tajribalarning oxiriga kelib, tajriba guruhidagi tovuqlarda tojlarning oqarişi 15 foizga kamayişi kuzatildi.

Xulosa. Tajriba yakuniga kelib, nazorat guruhidagi tovuqlarda yupqa pöçoqli, ba'zan esa umuman pöçoqsiz tuxumlar uluşi 30 % ni taşkil etdi. Bu holat mineral almaşinuv, xususan kalsiy-fosfor balansining buzilişi hamda vitamin yetişmovçiligi bilan boğliq funksional özgarişlar natijasi sifatida baholandi. Tajriba guruhida esa sezilarli ijobiy özgarişlar qayd etildi. Tajriba guruhida pöçoq sifati buzilgan tuxumlar uluşi örtaça 5 % gaça kamaydi.

Olingan natijalar qöllanilgan Aloe ekstrakti preparatining kalsiy almaşinuvini barqarorlaştiriş, tuxum qobiği şakllanişini yaxşilaş hamda tuxum sifatini oşirişda ijobiy ta'sir körsatganini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. Bessarabova R.F. Korma i kormleniye selskoxozyaystvennoy ptisi / R.F. Bessarabova, L.V. Toporova, I.A. Yegorov // M. – Kolos. – 1992. -S. 42.
2. Габзалилова Ю.И. Влияние биологически активных добавок в комбикормах на обмен веществ, продуктивные и воспроизодительные качества кур: дисс. на соиск. уч. степ. канд. с-х. наук. / Габзалилова Юлия Ирековна; ВНИИ мясного скотоводства. – Оренбург, 2009. – 166 с.
3. Головачев Д. Для высокой продуктивности – высококачественные корма /Д. Головачев // Птитсеводство. – 2006. – №6. – С.21-23.
4. Давлатов Р.Б., Эшбуриев Б.М. Паррандаларни асраш, озиқлантириш ва уларнинг касалликларини олдини олиш ҳамда даволаш бўйича т а в с и я л а р. Самарқанд. 2009. 39 б.

https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311009

5. Дымов А.В. Клинико-экспериментальное обоснование применения карофила для профилактики А-гиповитаминоза селскохозяйственной птисы. Автореф. дисс.…канд. вет. наук. Белгород 2011. г 21 с.
6. Егоров И. А. Нормы витаминов для птисы / И. А. Егоров // Кормление селскохозяйственных животных и кормопроизводство. – 2010. – № 9. – С. 52-58.
7. Егоров И. Эффективная кормовая добавка для бройлеров / И. Егоров, Е. Андриянова, Л. Присяжная // Птитсеводство. – 2011. – № 7. – С. 19-20.
8. Егоров, И.А. сенный корм для птисы / И.А. Егоров // Птитсеводство- 2014. – № 6. – С.22-24.